O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHUVCHI ORGANLAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Aktamova Sitora O’tkir qizi
Angren shahar Adliya bo’limi
YXKM bosh yuriskonsulti

Mazkur maqolada O‘zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirishga oid mavjud muammo va kamchiliklar tahlil qilinib, xalqaro institutlarning tavsiyalari asosida qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun, korrupsiyaga qarshi monitoring, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqni muhofazaqiluvchi organlar, korrupsiyaga qarshi kurashish agentliklari,.

В данной статье анализируются существующие проблемы и недостатки в координации правоохранительных органов Узбекистана в борьбе с коррупцией, а также даются предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства на основе рекомендаций международных институтов.

Ключевые слова: коррупция, правоохранительные органы по борьбе с коррупцией, антикоррупционные агентства, закон о борьбе с коррупцией, антикоррупционный мониторинг.

This article analyzes the existing problems and shortcomings in the coordination of law enforcement bodies of Uzbekistan in the fight against corruption, as well as offers and recommendations for improving legislation based on the recommendations of international institutions.

Keywords: corruption, anti-corruption law enforcement agencies, anti-corruption agencies, anti-corruption law, anti-corruption monitoring.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar qatorida sud-huquq masalalarini tartibga solish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, parlamentning rolini yanada oshirish hamda huquqni muhofaza qilish va sud organlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatning iqtisodiy o‘sishini yanada kuchaytirish, xalq farovonligini oshirish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha strategik vazifalarni hal etish davlatning korrupsiyaga qarshi siyosatini samarali amalga oshirishni ta’minlash, shuningdek, korrupsiya sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha yangi tizimli chora-tadbirlarni qabul qilishni talab etadi. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashda bevosita faoliyatni amalga oshiruvchi organlarning korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini

muvofiqlashtirishni ustuvor vazifa sifatida qo‘ymoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari xorij olimlaridan Y.V.Kapitanova[1], A.V.Kudashkin[2], I.G.Korzun[3], F.M.Kobzarev[4], I.A.Kalita[5], I.A.Imanov[6], N.M.Abdirov[7], P.Meagher[8] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Mamlakatimizning huquqshunos-olimlari, jumladan, B.X.Po‘latov[9], O.M.Madaliyev[10] va Z.S.Ibragimovlar[11] tomonidan prokuratura organlarining umumiy vakolatlari doirasida o‘rganilgan. Biroq, yuqorida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda to‘xtalib o‘tilgan masalalarga qaramasdan, aytish lozimki korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari to‘liq o‘rganilmagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida harakat qilishi va muayyan samaradorlikka erishishlarida ularning faoliyatini muvofiqlashtirish muhim o‘rin tutadi. Muvofiqlashtirish avvalambor, huquqiy vositalar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil etishdan iborat. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiya va boshqa jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirib borish vakolati aksariyat hollarda davlatning qonunchilik nazorati vakolati berilgan organi tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning xavfli oqibatlarini bartaraf etish har bir davlat va jamiyatning asosiy vazifasi bo‘lgan. Davlat bu borada o‘zining qonunga asosan tashkil etilgan organlari faoliyatini tashkil etish va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati borasida tegishli qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bilan o‘z vazifalarini bajarib keladi. Ma’lumki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlatning huquqiy tizimini himoya qilish va huquqni muhofaza qilish sohasidagi asosiy funksiyalarni bajarish uchun tuziladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida erishilgan yutuqlarga qaramasdan, ushbu illatning salbiy ta’sirlaridan xalos bo‘la olganimiz yo‘q. “Transparency International” nodavlat-xalqaro tashkiloti tomonidan 2021-yilda dunyo mamlakatlarining korrupsiya bo‘yicha e’lon qilingan reytingida O‘zbekiston 180 ta davlat ichida 140-o‘rinni egallagan. 2020-yilda O‘zbekiston 146-o‘rinni egallagan edi. O‘zbekistonda korrupsiyaviy jinoyatlarning aksariyatini mansabdorlik jinoyatlari tashkil qiladi. Bosh prokuratura tomonidan mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tahlili quyidagilarni ko‘rsatgan:

2020-yilning 3 oyi davomida respublika bo‘yicha jami 87 ta jinoyat ishi bo‘yicha 115 nafar mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan. Jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 4 nafari viloyat va 111 nafari tuman-shahar miqyosidagi idora va tashkilotlarda faoliyat yuritgan. Jinoiy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslarning 50 nafari o‘zganing mulkini o‘zlashtirish va rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, 21 nafari pora olish (berish) va pora olish-berishda vositachilik qilish, 7 nafari firibgarlik, 6 nafari mansab soxtakorligi, 3 nafari mansabga sovuqqonlik bilan qarash, 1 nafari mansab mavqeini suiiste’mol qilish va 27 nafari boshqa jinoyatlarni sodir etishgan. Mansabdor shaxslarning jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 51,3 mlrd. so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilgan bo‘lib, tergov jarayonida ushbu zararning 18,3 mlrd. so‘mi undirilgan.

Jamiyat rivojlangani sari mamlakatdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ham vakolatlari va funksiyalari o‘zgarib, davlatning siyosatiga moslashib boradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimini chuqur o‘rganish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2833-sonli qarori[12]da nafaqat korrupsiyaga oid, balki, barcha turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to‘liq javob bermasligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo‘naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayotganligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko‘rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o‘zaro nomutanosibligi alohida ta’kidlangan. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta’sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish asosiy maqsad qilib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5729-sonli Farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tuzilib, huquqni muhofaza qilish organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini o‘rganish komissiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Tadqiqot bo‘yicha o‘rganilgan nazariy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotni tahlili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish samaradorligini ta’minlashda quyidagilarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Bizningcha “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish” deganda birinchidan, “korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosati borasida va ikkinchidan esa, korrupsion jinoyatlarni fosh etish va profilaktika qilish borasidagi faoliyat sifatida tushunish mumkin”. Har qanday muvofiqlashtirish faoliyati huquqiy asoslarni shakllantirishdan boshlanadi. 2012-yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida Jakarta bayonoti” (Jakarta prinsiplari)ning 3-prinsipida[13] ham davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organi tegishli va barqaror huquqiy asoslar, masalan Konstitutsiya yoki maxsus qonun asosida yaratilishi kerak.

Jumladan, Rossiya Federasiyasining “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi va Qozog‘iston Respublikasining “Qonun ustuvorligi, qonuniylik va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha

Qozog‘iston Respublikasi Muvofiqlashtiruvchi kengashi to‘g‘risida”gi Prezident farmonlari mavjud. Mazkur davlatlarning yuqorida ko‘rsatilgan huquqiy hujjatlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish subyektlari, prinsiplari, shakllari va asosiy yo‘nalishlari aniq tartibga solib qo‘yilgan.

O‘zbekistonda ham jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish ishida ishtirok etayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlari asosan tashkiliy xarakter kasb etishini ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizcha, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishda respublikamizdagi barcha vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha “Jinoyatchilikka qarshi kurash borasida faoliyatni muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi qonunini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlarning say-harakatlarini, kuch va vositalarini birlashtirish, ish faoliyatlarida takrorlanishlarni oldini olish, korrupsion jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash, fosh etish, tergov olib borish va profilaktika qilishning eng muhim huquqiy asoslarini belgilab olish lozim. Ikkinchidan: Korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi davlatning maxsus vakolatli organi yoki boshqa tuzilmasi moliyaviy va mehnat resurlari bilan ta’minlanishi, uning monitoring faoliyati, xolis va shaffof baholash tizimi milliy qonunchilikda mustahkamlanishi lozim. Muvofiqlashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi organ yoki boshqa tuzilma nafaqat huquqiy, balki, iqtisodiy jihatdan ham mustaqil bo‘lishi, barcha kuch va vositalarga ega bo‘lishi kerak. “Jakarta prinsiplari”ning 15-prinsipida[14] ham korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organni yiliga kamida bir marta o‘z faoliyati to‘g‘risida jamoatchilikka rasmiy ravishda hisobot berishi kerakligi belgilangan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining O‘zbekiston to‘g‘risidagi hisobotida iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatlar davlat xavfsizlik xizmati organlarining asosiy vazifalariga kirmasligi, buning sababi maxsus xizmatlarning faoliyati, qoida tariqasida o‘ziga xosligi tufayli noaniq bo‘lib, ular ustidan samarali jamoatchilik nazorati yo‘qligi, jinoiy huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo‘yicha maxsus xizmatlarning amaldagi imkoniyatlari suiiste’molchiliklarga olib kelishi va o‘z-o‘zidan jiddiy korrupsiyaviy xavfni tug‘dirishi[15] ko‘rsatib o‘tilgan.

Fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashni amalga oshiruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida jamoat birlashmalari va fuqarolarning faol ishtirokini kuchaytirish, ularga muvofiqlashtirish natijalariga aloqador ma’lumotlarni o‘rganish imkoniyatini yaratish, jamoatchilik nazoratini ta’minlashning aniq tizimini yaratish lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirishda electron boshqaruv imkoniyatlardan foydalanish lozim. Muvofiqlashtirish natijalari shu organ yoki korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o‘zidagina qolib ketmasligi, parlament yoki jamiyatning manfaatlarini himoya qiluvchi boshqa tuzilmalar, shuningdek, fuqarolarni xabardor qilib borish maqsadga muvofiqdir.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunini 8^2-modda bilan to‘ldirish taklif qilinadi. **8^2-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar faoliyatining monitoringi**

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar faoliyatining monitoringi korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida ma’lumot va faktlarni to‘plash, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish,

taqqoslash, baholash, salbiy jarayonlarni aniqlash va bartaraf etishdan iborat bo‘lib, joylarda korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini qay darajada amalga oshirilayotganligi, tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatining samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotining holatini, shuningdek, mamlakatdagi korrupsiya darajasini baholashni o‘rganishga qaratiladi. Korrupsiyaga qarshi monitoring manbaalari korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi huquqiy-statistik ma’lumotlar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlar va axborotlar, ijtimoiy so‘rovlar natijalari, xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari, shuningdek, qonun bilan ta’qiqlanmagan boshqa ma’lumotlar bo‘lishi mumkin.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar har doim ham jinoyat bo‘lavermaydi. Bu esa amaliyotda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ya’ni ma’muriy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va fosh etish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor bo‘linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish qonunchilikda nazarda tutilmagan.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 15-moddasida belgilangan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun asoslar qatorida, ushbu moddaning 1-qismi uchinchi xatboshisini “korrupsiyaga oid huquqbuzarlik bilan bog‘liq bo‘lgan ma’muriy ishlar” jumlalari bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyaga qarshi monitoring natijalari mamlakatda korrupsiyaviy xavflarni tahlil qilish va baholashga, fuqarolar va davlatning antikorrupsiyaviy madaniyatini rivojlanishiga, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun asos bo‘lishi mumkin.

BMTning “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”ning 48-moddasiga ko‘ra har bir ishtirokchi davlat o‘zlarining vakolatli organlari, muassasalari va xizmatlari o‘rtasidagi samarali muvofiqlashtirishga ko‘maklashishlari nazarda tutilgan. Shuningdek, ishtirokchi davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida axborot almashinuvini va lozim bo‘lgan holatlarda, mazkur Konvensiyada qamrab olingan jinoyatlarni avvaldan aniqlash maqsadida qo‘llaniladigan ma’muriy va boshqa choralarni muvofiqlashtirishlari[16] belgilangan. Korrupsiyaga qarshi monitoring natijalari mamlakatda korrupsiyaviy xavflarni tahlil qilish va baholashga, fuqarolar va davlatning antikorrupsiyaviy madaniyatini rivojlanishiga, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun asos bo‘lishi mumkin.

IQTIBOSLAR:

1. Капитанова Ю.В. Основы координации деятельности прокуратуры по борьбе с преступностью: дис. … канд. юрид. наук: 12.00.11 / НИИ проблем укрепления законности и правопорядка при Генеральной прокуратуре Рос. Федерации. – М., 2002. – С. 21.
2. Кудашкин А.В. Координация деятельности по противодействию коррупции в военной организации государства. [Электронный ресурс]. URL: http:// www.voennoepravo.ru/files/Кудашкин/ (дата обращения: 10.04.2020)
3. Корзун И.Г. Координация прокуратурой деятельности правоохранительных органов по противодействию коррупции. – С. 17.;

Координация прокуратурой деятельности правоохранительных органов по борьбе с преступностью. – С. 13-14

4. Кобзарев Ф.М. Сущность, цели и правовое регулирование координационной деятельности // Основы организации и управления в органах прокуратуры Российской Федерации: учеб, для юрид. вузов / под ред. проф. А.Ф. Смирнова. – М.: ИПК руководящих кадров Генеральной прокуратуры Рос. Федерации, 2004. – С. 201.
5. Калита И.А. Деятельность органов прокуратуры по противодействию коррупции: автореф. дис. ... на соиск. уч. степ. канд. юрид. наук: 12.00.11 / АО ВПО Московский гуманитарный ун-т. – М., 2013. – 25 с.
6. Иманов И. А. Прокурорский надзор за исполнением законов о противодействии коррупции в Республике Казахстан: дис. … канд. юрид. наук: 12.00.11 / Акад. Генеральной прокураторы Рос. Федерации. – М., 2017. – С. 251.
6. Абдиров Н.М., Кобзарев Ф.М. Координационная деятельность прокуратуры Республики Казахстан по противодействию коррупции: опыт правового и организационного обеспечения // Вестн. Акад. Генеральной прокуратуры Рос. Федерации. – 2015. – №5 (49). – С. 47-56.
7. Patrick Meagher. Anti-Corruption Agencies: A Review of Experience. Office of democracy and governance Anticorruption. (https://pdf.usaid.gov/pdf_docs/Pnadm208.pdf)

9. Po‘latov B.X. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlar ijro etilishi ustidan prokuror nazorati. O‘quv qo‘llanma. - T.: Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2007. - 312 b.
8. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Darslik. Maxsus qism. – T.: TDYUI, 2009. – 884 b.
9. Ибрагимов З.С. Правовые проблемы совершенствования деятельности прокуратуры в системе органов государственной власти Республики Узбекистан : автореферат дис. ... кандидата юридических наук : 12.00.01.- Ташкент, 1997.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2833-sonli qarori, 2017 yil 14 mart//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161
11. URL..https..//www.acauthorities.org/news/principles-anti-corruption agencies-conference. Принципы антикоррупционного агенства. Джакарта, 26-27 ноября 2012 г. (International Conference Principles for Anti-Corruption Agencies). Джакартский принцип 3 о постоянство.
12. URL..https..//www.acauthorities.org/news/principles-anti-corruption agencies-conference. Принципы антикоррупционного агенства. Джакарта, 26-27 ноября 2012 г. (International Conference Principles for Anti-Corruption Agencies). Джакартский принцип 15 о публичной отчетности.
13. ОЭСР/АКС (2019), Отчет о четвертом раунде мониторинга Узбекистана, стр. 245.
14. https://lex.uz/docs/-1461329